O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIYA FANINING RIVOJLANISHI

S.A. Sobirjonov

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Tibbiy va biologik kimyo kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: sohibjonsobirjonov90@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi davrda tabiatni muhofaza qilish va barcha ekologik muammolarini yechish masalasi yer yuzida tinchlikni saqlashdan so‘ng muhim dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Maqolada O‘zbekiston olimlari tomonidan chop etilgan ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish darsliklari va o‘quv qo‘llanmalari o‘quv uslubiy ishlarga, lug‘atlarga tasniflari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Biosfera, global, ekologik madaniyat, o’quvchilarning aqliy, ma’naviy, shaxsiy, madaniy ko’nikmalarini rivojlantirish

Annotation. In the current era, the issue of protecting nature and solving all ecological problems is considered one of the most important urgent problems after maintaining peace on Earth. The article presents the classification of textbooks and teaching aids on ecology and environmental protection developed by Uzbek scientists, teaching methods, works, and dictionaries.

Keywords: Biosphere, global, ecological culture, development of intellectual, spiritual, personal, cultural skills of students.

Аннотация. В современную эпоху проблема охраны природы и решения всех экологических проблем считается одной из важнейших и актуальных после сохранения мира на Земле. В статье представлена классификация учебников и учебных пособий по экологии и охране окружающей среды, разработанных узбекскими учёными, а также методики обучения, труды и словари.

Ключевые слова: Биосфера, глобальная, экологическая культура, развитие интеллектуальных, духовных, личностных, культурных качеств учащихся.

Kirish

Davlatimiz mustaqillik yillarida ko‘pgina muvaffaqqiyatlarni qo‘lga kiritdi. Yirik davlatlar kabi o‘zining mashinasozlik zavodi yaratdi. Hozirgi kunda shahar va qishloqlarimizda xiyobonlar va ko‘chalarni qaytadan yangiladi va bu ko‘chalarda o‘zimizning mashinalar yurmoqda. Neft konlaridan neft mahsulotlari olinmoqda. Xullas, Davlatimiz mustaqillik yillarida neft, mashinasozlik, ishlab chiqarish, gaz ishlab chiqarish, bug‘doy va paxta yetishtirish bo‘yicha mustaqillikga erishdi.

Respublikamiz oliy o‘quv yurtlarida maxsus ekologiya kafedralari tashkil etildi. Masalan: Samarqand Davlat Universitetida Tuproqshunoslik va ekologiya fakulteti tashkil etildi. Ushbu fakultetda ekologiya va tabiatni muhofaza qilish kafedrasi faoliyat ko‘rsata boshladi. Davlat ushbu kafedrada ekologik

ISSN 3030-3907

mutaxasislarni tayyorlash uchun “Ekologiya”, “Gidrobiologiya”, “Biogeosenologiya”, “Gidroekologiya” “Landshaftlar ekologiyasi” kabi fanlardan ma’ruza matnlari tuzilib talabalarga o‘quv mashg‘ulotlari o‘tilib kelinmoqda. Biroq ushbu davrda davlat tilida darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar deyarli yo‘q edi. Borlari ham kam nusxada chop etilgan bo‘lib, talabalarga saboq berishda yetishmas edi. Biz quyida mustaqillik yillarida O‘zbekiston olimlari tomonidan ilk bor chop etilgan ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish darsliklari va o‘quv qo‘llanmalari o‘quv uslubiy ishlarga, lug‘atlarga tasnif berib o‘tamiz.

Asosiy qism

A.Ergashevning “Umumiy ekologiya” [1] darsligi ekologiyaning ilmiy nazariy asoslarini tashkil qilib u hozirgi fanning yangi ma’lumotlari asosida O‘zbekiston Respublikasi oily va o‘rta maxsus vazirligi tomonidan tasdiqlangan ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlanishga mo‘ljallangan dasturlar asosida tayyorlangan.

Darslikda ekologiya tarixi, vazifalari, iqlim omillari va ularning tirik organizmlarning o‘sishi, ko‘payishi hamda tarqalishiga ta’siri turlarning turli bioekologik birliklarning hosil qilish qonunlari, o‘simlik va hayvonlarning hayotiy shakllari organizmlar o‘rtasidagi biotik munosabatlar suv, tuproq ekologiyasi, populyasiyalar va biosenozlar ekologiyasi, ekologik sistemalar, ularning turli qonunlari, biosferaning ta’rifi inson ekologiyasi, zamonaviy ekologik muammolar va ularni yachishga oid chora tadbirlar nazariy asoslangan va yetarli ma’lumotlar orqali bayon qilingan. Ushbuga yana shuni qo‘shimcha qilishni lozim topdik.

Ergashyev A, Ergashyev T. [2]“ Ekologiya biosfera va tabiatni muhofaza qilish” . Ilk bor ushbu darslikni lotin alifbosida chop etdilar. Unda ekologik muammolar, biosferada yuz berayotgan global hodisalar va tabiatni muhofaza qilish xususidagi chora tadbirlar o‘rganilgan va ko‘p misol keltirilgan.

Egamberdiyev. R. Eshjanov. R. [3] “Ekologiya asoslari” Universitetlar va pedagogika o‘quv yurtlarining biologiya fakulteti talabalari uchun darslik.

Darslikda ekologiya asoslari fani rivojlanishining qisqacha tarixi, o‘simlik va hayvonlarning o‘rni, ekosistemalarning tavsifi, populyasig biosfera tabiyatni asrash respublikadagi ekologik holat uni tartibga solish, biologik jihatdan sof mahsulot yetishtirish atrof muhitga salbiy ta’sir etadigan omillarni bartaraf etish tadbirlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bulardan tashqari unda respublikamiz hududida joylashgan qo‘riqxonalar haqida qisqacha tushunchalar o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining [4] 50, 54, 55 va 100-moddalarida atrof muhitni himoya qilishga bag‘ishlangan. Masalan: “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonat dunyosini hamda boshqa tabiiy zahiralarni

ISSN 3030-3907

umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir" degan.

Sh.Q.Shirinboyev, Safin.M.G larning "Atrof muhitni muhofaza qilish" Samarqand [5] o'quv qo'llanmasida "ta'lim to'g'risidagi" qonun va kadrlar tayyorlashning milliy dasturiga muvofiq o'qitiladigan "Atrof muhitni muhofaza qilish" faniga tegishli eng zamonaviy ma'lumotlar keltirilgan. Qo'llanmada ushbu fanning nazariy asoslari, ekologik tushunchalar, biosfera, biosenoz, ekosistema ekologik omillar hamda atrof muhitni muhofaza qilishning amaliy jihatlari: atmosferani muhofaza qilish muammolari, yer va suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish, o'simlik boyliklari va hayvonot olami ularni muhofaza qilish kabi bo'limlarda ekologik muammolar aks ettirligan.

Z.I.Izzatullayevning I.S.Shukurov bilan hamkorlikda yozgan: "Shaharning ekologik muammolari" [6] o'quv qo'llanmasi ekologiya yo'nalishida ta'lim oluvchi talabalar uchun mo'ljallanib dastur asosida yozilgan bo'lib undan shovqin, uning paydo bo'lishi masalalari va uning oldini olish chora – tadbirlari, avtotransport chiqindi gazlari, ularning insonga ta'siri va muhofaza qilish muammolari o'z aksini topgan.

O'quv qo'llanmaning afzalligi shundan iboratki, unda mahalliy hududning shovqin bilan bosim ekologik muammolardan ta'riflangan va ilk bor SamDU ekolog mutaxassisligi uchun ta'lim jarayonida qo'llanilmoqda.

Xullas 2006-yilda O'zbekiston Milliy Universiteti Ekologiya kafedrasi olimlari professor P.U.Raximova va dotsent H.T.Tursunovlar ekologiya fanidan uslubiy qo'llanmani [7] chop etganlar. Undan ekologiya asoslari, amaliy ekologiya, ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalari o'rganilgan. Shu bilan birgalikda ekologik xavfsizlikning taminlashning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslari berilgan. O'zbekistondagi ekologik muammolarni o'rganish va hal qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Eng yutuqli tomoni shundaki, unda mavzular bo'yicha nazorat savollari, test topshiriqlari, referat va ma'ruzalar mavzulari berilgan.

Ekologik ta'lim respublikamizda oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturiga kiritilgan. O'quv jarayonida tabiatni muhofaza qilish, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti, atrof-muhitni himoya qilish va tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish va boshqa ekologik ixtisosliklar bo'yicha talaba yoshlarga bilim berilmoqda. Bu sohada bir qancha ilmiy ishlar bajarildi. Ekologik yo'nalishda darslik va o'quv qo'llanmalar yaratildi.

N.O'.Nishonovaning «Umumiy o'rta ta'lim talabalarining ekologik madaniyatini shakllantirish» mavzusida bajarilgan nomzodlik dissertatsiyasida o'smirlar ekologik madaniyatini shakllantirish pedagogik muammo sifatida o'rganilgan. Uning mohiyati, mazmuni, tarkibiy qismlari yoritilgan. Ekologik

ISSN 3030-3907

madaniyatni shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatlari oydinlashtirilib, adabiy ta'lim jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish samaradorligini ta'minlashga ta'sir qiluvchi omillar, bu boradagi asosiy mezonlari belgilangan. Ularning samaradorligi tajriba-sinov vositasida tekshirilgan [8].

Pedagogika nazariyasi yo'nalishida bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Sh.Avazovning «Qishloq maktablari yuqori sinf talabalarini o'lkashunoslik faoliyati jarayonida ekologik tarbiyalash» mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasida O'zbekiston ta'limlarida o'lkashunoslik va tabiatni muhofaza qilish ishlari rivojining tarixi pedagogik jihatdan tahlil etilgan. Ekologik-o'lkashunoslik faoliyati jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy va psixologik-pedagogik mohiyati, qishloq maktablari yuqori sinf o'quvchilarini darsdan tashqari ekologik-o'lkashunoslik ishlari jarayonida ekologik tarbiyalash ahvoli, samaradorligini oshirish yo'llari, mazmuni va vazifalari, faoliyati, mezonlari yoritilgan [9].

A.Nig'matovning «Ekologiya nima» risolasida XXI asrdagi dolzarb masalalardan biri – ekologik muammolarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tabiiy yo'nalishlari hamda ma'rifiy-madaniy tadbirlarning dasturi rejalari, ta'lim yo'nalishlari ishlab chiqilgan. A.Nig'matov, G'.Pardayevlarning «Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish» o'quv qo'llanmasida mahalliy, milliy, mintaqaviy va umumbashariy miqyosda ekologik xavfsizlikka erishish va barqaror rivojlanishning nazariy va amaliy jihatdan yoritib berilgan. Qo'llanma kishilik jamiyatining bir maromda va osuda hayot kechirilishlari uchun to'sqinlik qilayotgan hamda yagona tizimdagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni yechish yo'llariga bag'ishlangan bo'lib, yangi pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini olib borish xususiyatlariga bag'ishlangan [10].

A.Nig'matovning «Ekologiya huquqi» darsligida ekologiya huquqining tushunchasi, rivojlanish bosqichlari, predmeti, ekologik-huquqiy munosabat va ekologik-huquqiy mexanizm, ekologiya huquqi manbalari, boshqaruv, ekologik kadastr, nazorat va ekspertiza, javobgarlik, yerlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish, suv va suvdan foydalanishni ekologik-huquqiy tartibga solish, yer osti boyliklarini, o'simlik dunyosini, o'rmonlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish kabi masalalar nazariy jihatdan asoslangan [11].

I.Xolliyev, A.Ikromovlarning «Ekologiya» o'quv qo'llanmasida ekologiyaning asosiy tushuncha va tamoyillari, uning tarixiy taraqqiyoti, fan-texnika inqilobi sharoitida ekologik muammolar va ularni hal etishda fanning ahamiyati, tabiiy resurslarni oqilona boshqarish asoslari va ulardan foydalanish yo'llari ilmiy-metodik jihatdan asoslangan. Ushbu qo'llanmada ekologik muammoning ijtimoiy yo'nalishlari, inson, jamiyat va tabiat birligi haqida falsafiy qarashlar, ijtimoiy ekologiya, ekologik mafkura va madaniyat, ekologik tarbiya –

ISSN 3030-3907

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari talabalarini kompleks tarbiyalashning tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatilgan [12].

Shunday qilib yuqorida keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, oxirgi yillarda oliy ta’lim talabalari uchun ekologiya fanidan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar chop etish oldingi yillarga qaraganda ko‘paygan. Biroq yangi chop etilayotgan adabiyotlarda ko‘proq mahalliy ekologik muammolarni yechish va ularni yangi texnologik uslublar bilan boyitish lozim.

Murodimiz barcha ekologik adabiyotlarni tahlil qilish bilan birgalikda ushbu asarlarda mustaqillik yillarida davlat tilida chop etilgan adabiyotlarning yoshlarni ekologik ta’lim tarbiyalashdagi rolini anglashdan iboratdir.

Xulosa

Shunday qilib yuqorida keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, oxirgi yillarda oliy ta’lim talabalari uchun ekologiya fanidan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar chop etish oldingi 2014-2017-yillarga qaraganda ko‘paygan. Biroq yangi chop etilayotgan adabiyotlarda ko‘proq mahalliy ekologik muammolarni yechish va ularni yangi texnologik uslublar bilan boyitish lozim.

Murodimiz barcha ekologik adabiyotlarni tahlil qilish bilan birgalikda ushbu asarlarda mustaqillik yillarida davlat tilida chop etilgan adabiyotlarning yoshlarni ekologik ta’lim tarbiyalashdagi rolini anglashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ergashev Ahmadqul Umumiy ekologiya Toshkent, O‘zbekiston 2003.
2. Ergashyev A, Ergashyev T. bilan hamkorlikda: “ Ekologiya biosfera va tabiatni muhofaza qilish” Toshkent . Yangi asr avlodi 2005, 434 b
3. Egamberdiyev. R. Eshjanov. R. “Ekologiya asoslari” Universitetlar va pedagogika o‘quv yurtlarining biologiya fakulteti talabalari uchun darslik “Zar qalam” 2004 y 225 bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.(O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining o‘n birinchi sessiyasi (1992 yil 8 dekabr)da qabul qilingan). –T.: Adolat, 1992. – 49 b.
5. Shirinboyev Sh.Q., M.G Safin. “Atrof muhitni muhofaza qilish” Samarqand (SamDChTI 2003-yil)
6. IzzatullayevZ.I.I., Shukurov S. “Shaharning ekologik muammolari” (Samarqand, SamDU 2005)
7. Raximova P.U., H.T.Tursunov. Ekologiya fanidan uslubiy qo‘llanma. (Toshkent 2006)
8. Nishonova N.O‘. Umumiy o‘rta ta’lim ta’lim talabalarining ekologik madaniyatini shakllantirish: Ped. fan. nom. ... diss. avtoref. – T.: 2001. – 21 b.

ISSN 3030-3907

9. Bozorova N. Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.(oliy ta'lim muassasalari misolida) Ped. fan. nom. ... diss. avtoref. – T.: 2006. – 158 b.
10. Nig'matov A., Pardayev G'. Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish. – T., 2005. –95 b.
11. Nig'matov A. Ekologiya huquqi // Akademik-litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: 2003. 283 b.
12. Xolliyev I., Ikromov A. Ekologiya // Kasb-hunar kollejlari uchun qo'llanma. –T.: Mehnat, 2001. – 208 b.
13. A.Rafiqov, Q.Abirqulov, A.Hojimatov . "Ekologiya". Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. Toshkent 2004
14. A.Ergashev, T.Ergashev . "Agroekologiya". Toshkent "Yangi asr avlodi" 2006
15. Ahmatqul Ergashev. "Umumiy ekologiya" Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent. "O'zbekiston", 2003-y.
16. A.S. To'xtayev. "Ekologiya", Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. Toshkent "O'qituvchi", 1998-y
17. D.Yormatova, V.Mahmudov, A.Ma'murov, A.Mahmudov. "Ekologiya", Toshkent-2009

ISSN 3030-3907